

## **XIZMATLAR KO'RSATISHGA (ISHLARNI BAJARISHGA) OID SHARTNOMA № H-59**

**Urgut shahri**

«21» «sentabr» 2022 yil

«AZIZA-QURUVCHI»MXD keyingi o'rnlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining ustavi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi M.Uzboyev (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomondan va **Urgut tuman XTB**(korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining ustavi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi E.Pulatov (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### **I. SHARTNOMA PREDMETI**

- 1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga **59-maktabda 8 ochkoli hojatxona qurib berish** (keyingi o'rnlarda - "Xizmatlar" deb yuritiladi) xizmat ko'rsatish, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. "Xizmatlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

### **II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **2.1. "Buyurtmachi"ning huquqlari:**

- 2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
- 2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;
- 2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;
- 2.1.4. zarur sifatga ega bo'lмаган "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:
  - zarur sifatga ega bo'lмаган "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;
  - "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;
  - bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;
- 2.1.5. SHartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

#### **2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatları:**

- 2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022 yilda byudjet mablag'lari doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2. O‘z buyurtmanomasi bo‘yicha ko‘rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan narx bo‘yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g‘aznachilik bo‘limi ro‘yxatidan o‘tkazgandan so‘ng 3 kun mobaynida haq to‘lash.

### **2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:**

2.3.1. Ko‘rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to‘lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko‘rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

### **2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:**

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G‘aznachilik bo‘limidan ruyxatdan o‘tkazilgandan so‘ng "Xizmatlar"ni ko‘rsatish;

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko‘rsatish;

2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko‘rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda tekin tuzatib berish.

## **III. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI**

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi **65 300 000 (Oltmish besh million uch yuz ming)so‘m** Ko‘rsatiladigan "Xizmatlar"ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko‘rsatilgan.

3.2. "Buyurtmachi" ko‘rsatiladigan "Xizmatlar" turkumi summasining 30 foizi oldindan to‘lovni amalga oshiradi va ishlar bajarilgach qolgan 70% tulov amalga oshiriladi.

3.3. Ko‘rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko‘chirish yo‘li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

## **IV. SHARTNOMANING BAJARILISHI**

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o‘z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta’minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtma"chining Hisob-kitob hujjatida g‘aznachilik bo‘linmalarining shtampida ko‘rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to‘lash bo‘yicha "Buyurtmachi" majburiyatları bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rmini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'rni to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. SHartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Buyurtmachi"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lмаган "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lган "Xizmatlar"ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmasligi natijasida etkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati

kechiktirilishi yoki to‘liq ko‘rsatilmasligi tufayli etkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko‘rsatilgan "Xizmatlar" uchun o‘z vaqtida haq to‘lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisobraqamidan penya to‘laydi, biroq bu kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo‘yicha shartnomaga majburiyatlar bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko‘rib chiqiladi.

"Bajaruvchi"ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida etkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi choratadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo‘llaniladi.

5.8. Nazorat organlari tomonidan utkazilgan tekshirish davomida bajarilgan ishlar va tovar maxsulotlar narxi yukori deb topilgan takdirda urtadagi fark tovar etkazib beruvchi tomonidan koplanadi.

## **VI. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI**

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko‘ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko‘radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

## **VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI**

7.1. Mazkur shartnoma 2022 yil «\_\_» sentabrdan 2022 yil «31» dekabrigacha amalda bo‘ladi.

7.2. Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to‘liq tugallangan taqdirda to‘xtatiladi.

## **VIII SHARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI**

8.1 SHartnomani taraflarning uzaro kelishuviga asosan yoki Uzbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga xamda amaldagi konun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni tulagan xolda muddatidan ilgari bekor kilishi mumkin.

## **IX. YAKUNIY QOIDALAR**

9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko‘ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo‘yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o‘zgartirish va qo‘srimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

9.4. Mazkur shartnoma, unga o‘zgartirishlar (qo‘sishchalar ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

## **X. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI**

«Bajaruvchi»

«Buyurtmachi»

### **AZIZA-QURUVCHI MXD**

(mol etkazib beruvchining nomi)

Manzil: Urgut tumani Juraptepa mfy

Tel./faks(99)385 68 77

h/v 20208000904475768001

Bank nomi Самарканд ш.,

ОАТБ Кишлак-Курилиш банк Самарканд

MFO 00287 STIR 206214507

OKONX

Rahbar

 M.Uzboyev

### **Urgut tuman Urgut tuman XTB**

(Buyurtmachi)

Manzil: Urgut sh Navoiy shoh

kuchasi 8-uy

Tel./faks 98 150 07 40


h/v100022860182367092100075146

Bank nomi Markaziy bank

MFO 00014 STIR 200784150

OKONX 97600

Rahbar

 E.Pulatov





**Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"AZIZA-QURUVCHI MXD" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'satilgan holdagi to'liq nomi)

**"AZIZA-QURUVCHI MXD" MChJ**

(Yuridik shaxsning qisqartilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

16.03.2006

2101

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi

(Sana. oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

206214507

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Samarqand shahri, A.TEMUR 1 BOSH BERK, 2.

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Samarcand shahri, DAVLAT  
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
HUQUQIY XULOSA**

№

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:** Xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi.

1. «AZIZA-QURUVCHI»MXD keyingi o‘rinlarda “Bajaruvchi” deb yuritiladi. O‘zining ustavi asosida ish yurituvchi **M.Uzboyev** nomidan, bir tomonidan va Urgut tuman XTB, keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi, o‘zining ustavi asosida ish yurituvchi **E.Pulatovlar** tomonidan mazkur shartnoma tuzildi.

1.2. Shartnomaning umumiy summasi **65 300 000** (Oltmis besh million uch yuz ming) so‘mni tashkil qiladi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Urgut tuman Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan 2022-yil 20-sentabr kuni UH0105514271-son hujjat raqami bilan ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

XULOSA

Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” 1998-yil-29 avgustdagi 670-I-son qonuni hamda amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan, uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**O. Yoqubov**

2022-yil 20-sentabr